Siddiqov.B.S.
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent pedagogika kafedrasi professori
Ochildiyeva.Yu.N.
Farg‘ona davlat universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING METODIK KOMPETENTLIGINI KREATIV YONDASHUVLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya*:* Ushbu ilmiy tezisda inklyuziv ta’lim sharoitida talabalarning metodik kompetentligini kreativ yondashuvlar orqali rivojlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan va uning samara dorligi eksperimental yo‘l bilan isbotlangan. Tadqiqot davomida inklyuziv ta’lim asosiy tamoyillari, kreativ yondashuv va metodik kompetintligini inklyuziv ta’limda qo’llanilish tahlil qilindi, pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning professional tayyorgarlik jarayoni o‘rganildi. Inklyuziv ta’limning asosiy to’rtta tamoyillari :Bular birinchi tamoyil barcha bolalarning ta’lim olish huquqiga ega, ikkinchi tamoyil individual yondashuvdir, uchinchi tamoyil moslashuvchan o‘qitish metodlari, to‘rtinchi tamoyil hamkorlikka asoslangan muhit.Ishlab chiqilgan texnologiya to‘rt asosiy bosqichdan iborat: motivatsion-tayyorgarlik, nazariy-metodik, amaliy-kreativ va refleksiv-baholash bosqichlari o’rganildi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, metodik kompetentlik, kreativ yondashuvlar, pedagogik texnologiya, talabalar tayyorgarligi, individual yondashuv, hamkorlikka asoslangan muhit, diagnostik , tashkiliy kompetentlik, innovatsion metodlar, moslashuvchan ta’lim, raqamli texnologiyalar.

Zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri inklyuziv ta’limni rivojlantirish hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalar, shu jumladan maxsus ta’limiy ehtiyojga ega o‘quvchilar uchun sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishni nazarda tutadi. Bu esa o‘z navbatida pedagogik kadrlardan yuqori darajadagi metodik kompetentlik, innovatsion fikrlash va kreativ yondashuvlarni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Har bir bola, uning qobiliyati va imkoniyatlari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish huquqiga ega”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi PF-6140-son “Ta’lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida maxsus ta’limga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta’limni rivojlantirish, shu jumladan malakali pedagog kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.Maktablarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun

sharoit yaratilmoqda, o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pedagoglar, ayniqsa yosh mutaxassislar inklyuziv muhitda ishlash uchun zarur bo‘lgan metodik ko‘nikmalarga yetarli darajada ega emaslar. Bu muammo birinchi navbatda oliy ta’lim bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida inklyuziv kompetentliklarni rivojlantirishga yetarlicha e’tibor berilmasligi bilan bog‘liq.

Talabalar nazariy bilimga ega bo‘lsalar-da, ularning amaliy ko‘nikmalari, kreativ fikrlash qobiliyati va turli xil ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar uchun moslashuvchan o‘quv materiallarini yaratish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan. Shu munosabat bilan inklyuziv ta’lim sharoitida talabalarning metodik kompetentligini kreativ yondashuvlar orqali rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Inklyuziv ta’lim XXI asrda global ta’lim siyosatining muhim yo‘nalishi va inson huquqlarini ta’minlashning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Bu tushuncha nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.YUNESKO ta’rifiga ko‘ra, inklyuziv ta’lim bu barcha o‘quvchilar, jumladan maxsus ta’imiy ehtiyojga ega bolalar uchun sifatli ta’im olish imkoniyatini ta’minlaydigan tizimdir. Bu yondashuv ta’limning barcha darajalarida qo‘llanilishi va har bir bolaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o‘rganish uslublarini hisobga olishi kerak.

“Inklyuziya” so‘zi lotin tilidan “inclusion” – “qo‘shish, kiritish” degan ma’noni anglatadi. Pedagogik kontekstda inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalar, jumladan maxsus ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan (nogironligi yoki rivojlanish xususiyatlari mavjud) bolalarning umumiy ta’lim muhitida teng huquqli, to‘liq va samarali ta’lim olish imkoniyatini ta’minlaydigan ta’lim tizimi va jarayonidir.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat. Birinchi tamoyil bu barcha bolalarning ta’lim olish huquqidir. Har bir bola, uning jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, til yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, ta’lim olish huquqiga ega. Ikkinchi tamoyil individual yondashuvdir. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari mavjud bo‘lib, ta’lim jarayoni shu xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi zarur. Uchinchi tamoyil moslashuvchan o‘qitish metodlari bo‘lib, pedagoglar turli xil o‘qitish usullaridan foydalanish va ularni har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirishga qodir bo‘lishlari kerak. To‘rtinchi tamoyil hamkorlikka asoslangan muhitdir, ya’ni inklyuziv ta’lim o‘qituvchilar, ota-onalar, mutaxassislar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida yaqin hamkorlikni talab etadi.

Metodik kompetentlik pedagogning professional faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Metodik kompetentlik ostida pedagogning ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, turli xil metodlar va vositalarni qo‘llash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati tushuniladi. Metodik kompetentlik bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topgan. Diagnostik kompetentlik o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlarini aniqlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Loyihalash kompetentligi ta’lim jarayonini rejalashtirish, dars ishlanmalarini tayyorlash, o‘quv materiallarini tanlash va tuzishni nazarda tutadi. Tashkiliy kompetentlik darsni samarali tashkil etish, vaqtni boshqarish, o‘quvchilar faoliyatini

muvofiqlashtirish qobiliyatlarini qamrab oladi. Refleksiv kompetentlik o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini topish ko‘nikmalaridan iborat. Kommunikativ kompetentlik esa o‘quvchilar, ularning ota-onalari va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida metodik kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki pedagog nafaqat umumiy metodlardan, balki maxsus ehtiyojli o‘quvchilar bilan ishlashning o‘ziga xos usullaridan ham foydalanishga qodir bo‘lishi kerak. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi kreativlik va innovatsion fikrlashni talab etadi.

Kreativlik pedagogikada muhim o‘rin tutadi. Kreativlik deganda muammoli vaziyatlarda noan’anaviy, innovatsion yechimlar topish qobiliyati tushuniladi. Inklyuziv ta’limda kreativ yondashuvlar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Differentsiatsiyalangan topshiriqlar yaratish bir xil mavzu bo‘yicha turli murakkablik darajasidagi va turli xil qabul qilish usullariga mo‘ljallangan topshiriqlarni tayyorlashni nazarda tutadi. Vizual, audio va kinetik usullarni integratsiyalash turli xil o‘rganish uslublariga ega o‘quvchilar uchun ma’umotni turli shakllarda taqdim etishni anglatadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish zamonaviy vositalar yordamida interaktiv va qiziqarli ta’im muhitini yaratish imkonini beradi. O‘yin texnologiyalari esa o‘quv jarayonini qiziqarli va motivatsiyalovchi qilishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida talabalarning metodik kompetentligini kreativ yondashuvlar orqali rivojlantirish texnologiyasi to‘rt asosiy bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich motivatsion-tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, bu bosqichda talabalar inklyuziv ta’lim tamoyillari bilan tanishadilar, maxsus ehtiyojlar turlarini o‘rganadilar va o‘zlarining kreativ salohiyatini baholaydilar. Ushbu bosqichning maqsadi talabalarda inklyuziv ta’limga ijobiy munosabat shakllantirilish va ularni keyingi ishga tayyorlashdir.

Ikkinchi bosqich nazariy-metodik bosqich bo‘lib, bu bosqichda talabalar inklyuziv ta’limda qo‘llaniladigan metodlarni o‘rganadilar, moslashuvchan o‘quv materiallarini yaratish usullarini egallaydilar va differentsiatsiyalangan ta’lim texnologiyalari bilan tanishadilar. Bu yerda nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uzviy bog‘lanadi.

Uchinchi bosqich amaliy-kreativ bosqich hisoblanadi va bu eng muhim bosqich bo‘lib, unda talabalar inklyuziv darslar loyihalarini ishlab chiqadilar, innovatsion didaktik materiallar yaratadilar va mikrota’im o‘tkazadilar. Ushbu bosqichda kreativ yondashuvlar amaliyotga faol tatbiq etiladi.

To‘rtinchi bosqich refleksiv-baholash bosqichi bo‘lib, bu bosqichda talabalar o‘z faoliyatini tahlil qiladilar, portfolio tayyorlaydilar va yakuniy loyihalarini himoya qiladilar. Bu bosqich o‘z tajribasini umumlashtirish va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’lim – bu zamonaviy ta’limning universal paradigmasi bo‘lib, barcha bolalar uchun sifatli va teng ta’limni ta’minlashga qaratilgan. Uning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning professional tayyorgarligi, ayniqsa metodik kompetentligiga bog‘liq. Shu sababli, oliy ta’limda bo‘lajak pedagoglarda inklyuziv muhitda samarali ishlash uchun zarur bo‘lgan kompetentliklarni tizimli shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi PF-6140-son “Ta’lim sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Abdurahmonov Q. Inklyuziv ta’imning nazariy asoslari. Ta’lim va innovatsiyalar.2022. 45-52-b.
3. Yusupova M. Kreativ pedagogika va uning ahamiyati. Pedagogika fanlari. 2021. 78-85-b.
4. UNESCO. Inclusive Education: Approaches and Technologies. Paris: UNESCO Publishing.2020
5. Johnson D. W., & Johnson R. T. Cooperative learning and inclusive education. International Journal of Inclusive Education.2019.545-559.

\